



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*





“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv”

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya
materiallari**

To‘plam

Toshkent-2026



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2026. 342-bet.

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SWUG2512

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.



HAR BIR SO'ZI HIKMAT OLIM

O'zbek tilshunosligida ilmiy maktab yaratgan olim, filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyev umrining ellik yildan ortig'ini ilmiy-pedagogik faoliyatga bag'ishladi. Shunday naql bor: "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin". Bu naqlda ilmiga amal qilmagan olimga nisbatan berilgan xalqning bahosidir. Ba'zi qo'shtirnoq ichidagi olimlar borki, kibrga, manmanlikka berilib ketadi. Lekin Samixon Ashirboyevda bu xislatlardan zarracha ham yo'q. Ustoz katta-yu kichikka birday, qo'ldan kelgancha yordamini, yaxshiligini ayamaydigan samimiy inson. Domla ilm-fanga umrini bag'ishlagan, o'zbek tilshunosligini rivojlantirgan va ko'plab shogirdlar tayyorlagan zabardast olim.

Domla bilan yaqindan tanishganimga o'n yilcha bo'lib qoldi. Samixon Ashirboyev bilan ishga bir yo'nalishdagi avtobusda qatnaganimiz bois, yaqindan tanishishga muyassar bo'ldim. Har kun ishga yetib borguncha domlanning ilm ummonidan bahra olamiz. Olim serqirra ijodkor bo'lib, o'zining ilmiy-pedagogik faoliyatida areal lingvistika, o'zbek tili tarixi, o'zbek tilining diaxron yo'nalishidagi tadqiqot ishlari hamda o'zbek tili tarixi va dialektologiyasi bo'yicha darslik, o'quv metodik qo'llanmalar, maktablar uchun "O'zbek tili" darsliklarini nashr etdi. Muharrirlik va noshirlik faoliyati ham e'tiborga molik. Masalan, bir necha yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi "Pedagog" jurnali tahririyatida faoliyat olib bordi.

Domla nafaqat O'zbekiston ilm-fani rivojiga, balki qo'shni davlatlar yosh avlodi ta'lim – tarbiyasi uchun ham munosib hissa qo'shib kelayotir. Jumladan, Qozog'iston Respublikasidagi o'zbek maktablariga mo'ljallangan "O'zbek tili" fani Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi hamda 5-, 6-, 7-, 8-, 9-sinflarning "O'zbek tili" darsligi, uning didaktik materiallari va o'qitish metodikalarining muallifi sifatida faoliyat yuritgan.

Olimning ilmiy-pedagogik faoliyati ikki universitet – O'zbekiston milliy pedagogika universiteti va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan bog'liq. Domla talabalarga "Areal lingvistika", "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek adabiy tili tarixi", "O'zbek dialektologiyasi", magistrantlarga esa "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanlaridan dars berish jarayonida talabalarining eng sevimli, yaxshi ko'rgan ustoziga aylangan.

Samixon Ashirboyev tarixiy manbalar tili haqida ko'plab tadqiqotlar olib bordi. Misol uchun, "Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari", 1993-yilda "Alisher Navoiyning nasriy asarlarida murakkablashgan sodda gaplar" monografiyasini, 1988-yilda "Alisher Navoiy prozasi – sintaktik tadqiqot obyekti", 1997-yilda "Qutbning "Xisrav va Shirin" dostoni va "O'zbek adabiy tili" nomli risolalarini e'lon qildi. Bundan tashqari olim til tarixiga bag'ishlangan 100 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etdi.



Domla matbuot tarixi bo'yicha ham yetuk mutaxassis. Chunki mening nomzodlik dissertatsiyam bevosita jadid matbuoti tarixi bilan bog'liq bo'lganligi sabab domla aytgan ilmiy ma'lumotlar men uchun qiziq edi. Samixon Ashirboyev XX asr boshlarida nashr etilib turgan "Oyna", "Sadoiy Turkiston", "Sadoiy Farg'ona", "Maorif va o'qitg'uchi" kabi ko'plab gazeta va jurnallardagi birlamchi materiallar asosida o'sha davr adabiy jarayoni masalalari va til muammolarini o'rgangan yetuk mutaxassis.

Olimning san'atshunoslik faoliyati haqida ham to'xtalmaslikning iloji yo'q. Domla mumtoz ijodkorlar (Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Furqat, Muqimiy singari ko'plab) g'azallarini mohirlik bilan, har qanday hofiz bilan bellashadigan darajada kuylaydi. Chunki bu gaplarni aytishimga sabab har yili universitetda Samixon Ashirboyev tadbiri ("Nazm va navo" kechasi) bo'lib o'tadi. Bu kechada majlislar zali domlaning do'stlari, shogirdlari, talabalar bilan to'lib ketib, hatto joy ham topolmay qolasiz. Bu esa domlaning qo'shiqni haddi a'losiga yetkazib kuylashidan dalolatdir.

Samixon Ashirboyev oliy ta'lim muassasalariga ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda ham faol. Domla rahbarligida tilshunoslik, pedagogika sohalari bo'yicha 20 ga yaqin nomzodlik va PhD dissertatsiyalar himoya qilgan, 4 nafar shogirdi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ayni paytda domla Respublika Ilmiy kengashlarning faol a'zosi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash raisi o'rinbosari. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tashkil etiladigan 13.00.02 – Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha Ilmiy kengash raisi sifatida faoliyat olib boradi.

Domla dissertatsiya himoyalari jarayonida juda faol. Har bir dissertatsiyani yuqori darajada tahlil qilib, o'zining munosabatini bildirib boradi. Yoki ba'zi bir himoya jarayonidagi munozarali masalalarga o'zining adolatli, xolis fikrlari bilan faol ishtirok etadi.

Samixon Ashirboyevning shaxsi haqida ham bir ikki so'z aytmoqchiman. Domla mehmondo'st, mehribon ustoz. Har Navro'z bayrami arafasida domla hovlisida o'zi kabob tayyorlab do'stlari, shogirdlari bilan baham ko'radi. O'sha kun juda esda qoladigan kunga aylanadi. Domladan ko'plab fan uchun ilmiy ma'lumotlar olamiz. Ustoz, inson sha'ni va mehnatini qadrlaydigan inson. Muruvvatli va hazil-mutoyibaga moyil.

Samixon Ashirboyevga uzoq umr, oilaviy xotirjamlik, sihat-salomatlik, baxt-saodat, ilmiy-pedagogik faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Qo'ldosh PARDAYEV,
Filologiya fanlari doktori, professor.



MUNDARIJA

YALPI YIG'ILISH MA'RUZALARI

1.	Shuhrat SIROJIDDINOV, O'zbek shevalarining daqiq olimi	3
2.	Nurboy JABBOROV, Olimning betakror olami	5
3.	Shamshetdin ABDINAZIMOV, Туркстанлы тилши	8
4.	Suyun KARIMOV, Ilm-u ma'rifatdan zavqlanib yashash baxti	10
5.	Abdulhay SOBIROV, O'zbek areal tilshunosligi asoschisi	12
6.	Abdug'afur MAMATOV, Taniqli tilshunos, ibratli ustoz	16
7.	Baxtiyor MENGLIYEV, Ma'rifat osmonining porloq yulduzi	18
8.	Rauf YARKULOV, Ilm va ustozlik sharafti	24
9.	Murodqosim ABDIYEV, Ilm va hayot mashaqqati yo'llarini bosib o'tgan olim	28
10.	Bekpo'lat UMURQULOV, Tilining hissiy tadqiqotchisi	33
11.	Saodat MUHAMEDOVA, Samixon Ashirboyev: o'zbek tilshunosligi va pedagogikasidagi yorqin ijodiy yo'l	36
12.	Nigora MURODOVA, Navruz RAHMONOV, Ilm-u ma'rifat posboni	40
13.	Sulton NORMAMATOV, Olimlik va odamiylik saodati	42
14.	Inomjon AZIMOV, Mardon RAXMATOV, Ibratli umr	47
15.	Uzoq JO'RAQULOV, Samixon domla samimiyati	52
16.	Zulxumor XOLMANOVA, Ilmga sadoqat	55
16.	Qo'ldosh PARDAYEV, Har bir so'zi hikmat olim	60
17.	Marg'uba ABDULLAYEVA,	62